

“O‘ZBEK ESTRADA KUYCHISI BOTIR ZOKIROV”

Norpo'latova Shaxlo Norpo'lat qizi

O'zbekiston davlat Konservatosiyasi qoshidagi Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti
"Estrada cholg'u ijrochiligi" fakulteti "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrası 1-bosqich magistri

G'aniyeva Lola Muxsinovna

Ilmiy raxbar: san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

Annontatsiya: Ushbu maqolada o'zbek estrada qo'shiqchilik san'atining asoschisi Botir Zokirov ijrosiga oid asarlar, san'atkor repertuaridan o'rin olgan mangu qo'shiqlarning ijro tahlili, ijro repertuari xususida hamda Botir Zokirov siymosiga bugungi kunda qaratilayotgan e'tibor bayon etilgan.

Kalit so'z; Estrada, xonanda, san'atkor, qo'shiq, kompozitor, ijro, lirik.

Xar bir xalq, millat, elat borki o'z tili, san'ati, adabiyoti, tarixi va urf-odati bilan, jahon minbarida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan xalqimiz tarixi, madaniyati bilan dunyo zarvaraqasida ajralib turishi va butun dunyo tomonidan tan olingani barchaga ma'lum albatta. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor.”.

Musiqa san'ati, xar bir xalqning fahri, g'ururi hamda madaniyatining yorqin na'munasidir. Shuningdek o'zbek madaniyatining jahon minbarida tan olinishida, musiqa san'atining vakillari bo'lmish kompozitor, bastakor, xonanda va sozandalarning ahamiyati katta.

San'atkor Botir Zokirov o'zining betakror ijrolari tufayli o'zbek estrada kuychisi sifatida abadiyatga muxrlandi. Botir Zokirovning ijodiy yo'li fortepiano klavishlari oq-u qora hamda musiqiy tovushlar kabi baland-u past chiziqlardan iborat. San'atkor sog'ligi tufayli qo'shiq aytish taqiqlangan vaqt o'zining kundaligiga quyidagicha satrlarni muxrlagan “Kuylamoq bu men uchun yashamoq degani”. Darxaqiqat Botir Zokirov butun umri davomida qo'shiqlar ijro etgan bo'lib, u ijro etgan asarlarda mangu nishonasi bor edi. Shuni ta'kidlash joizki, uning ijodida o'zbek kompozitorlarining romans va qo'shiqlari muhim o'rin tutadi, ba'zi kompozitorlar Botir Zokirov ovozi inobatga olib aynan Botir Zokirov ijrosi uchun asarlar yozishgan. Masalan: Mutal Burhonov „Maftun bo'ldim“, „Namedonam, chi nom dorad“; I. Akbarov – „Yor kel“, „Ra'no“, „Gazli“, „Seni eslayman“; Sayfi Jalil – „Majnun monologi“, „Kechalar yulduz sanab“; Enmark Salihov „Umid“ qo'shiq va romanslari shu jumladandir.¹

Shuni ta'kidlash joizki Botir Zokirov nafaqat musiqiy qobiliyat egasi balki tas'viriy san'at shaydosi ham edi. Shu boiz Zokirov asarlarni ijro etganida butun vujudi tasviriy olamini his qilgan xolda tinglovchiga yetkazib bergan. Botir Zokirov adabiyot she'riyat borasida ko'plab bilimlarga ega bo'lgan. San'atkorning she'r yozish qobiliyati ham bo'lib, masalan Mutal Burhonovning “Bahor qo'shig'i” asarning so'z muallifi va birinchi ijrochisi Botir Zokirovdir. Ushbu qo'shiq 3 qismdan iborat bo'lib, qo'shiqning boshlanishi akkordlar izchiligida ijro etiladi. Bu akkordlar orqali qo'shiqning kuychangligi, intonatsiya sofligi va baland pardalardagi ijroni saqlagan xolda kuylashni talab etadi. Ashulaning birinchi qismida qo'shiqchi mayin lirik ovoz bilan, ko'zlarni qamashtiruvchi bahor faslini ifoda etib bergan, ikkinchi qismda kelib asardagi sur'at jaddalashib xonandaning ijro imkoniyatini yorqin ifodalab beradi. Uchinchi qismda esa Botir Zokirov dastlabki sur'atga va xolatga qaytib qo'shiq ijrosini yakunlab beradi.

Mangulikka muxrlangan yana bir asar Botir Zokirov ijrosidagi “Eng gullagan yoshlik chog'imda” qo'shig'idir. Ushbu qo'shiq Hamid Olimjon so'zlariga yozilgan bo'lib, she'rda go'zal va gullagan yoshlik chog'larini sog'inch bilan eslab yozilgan ushbu asar jrochidan samimiy, iztirobli va ta'sirchan kuylashni talab qiladi. Ushbu qo'shiqni Botir Zokirov keng diapazonga ega ovozi, yoqimli shiradorligi, ovozning bir xil chiqishiga, uzluksizligiga e'tibor berib mohirlik ila ijro etgan.

¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mutal_Burhonov

«Xayolimda bo‘lding uzun kun». H.Olimjon she'riga yozilgan Ushbu qo‘shiq lirik usulda yozilgan bo‘lib, san‘atkor ijrosida uni yumshoq, yoqimli ovozda boshlab, asta-sekin ovoz kuchini oshirib, avj qismiga o‘tiladi. «Kecha jimjit.

Yolg‘iz to‘lqinlar» - deb boshlangan qismini jarangdor ovozda, nafasni qorin bo‘shlig‘iga olib, baralla ijro etgan. Shu bilan bir qatorda xonanda dramatik va ta’sirchan ijro etgan.²

Ra’no S.Akbary so‘ziga yozilgan mazkur asar Botir Zokirovning yuqori diapazonli ovozi uchun juda monand edi. Qo‘shiq juda nozik did bilan yozilgan bo‘lib, uni kuylashda yuqori mahoratga, chuqur his-tuyg‘uga ega bo‘lish talab qilinadi. San‘atkor ovozning bir xil chiqishiga hamda chiroyli tovush bilan kuylashga harakat qilgan. Ushbu Qo‘shiq lirik uslubda yozilgan, uni shoshilmay, yoqimli ovoz bilan ijro etish lozim. Asarning avj qismida to‘laroq ovoz bilan his-hayajonli, yopiqroq (sig‘ishtirilgan) tovushdan foydalanish kerak. Qo‘shiqning oxirgi qismida vokaliz (o...) nafasni qorin bo‘shlig‘iga olib, yopiq ovoz bilan juda muloyim, nozik (dolce) va shirali qilib, falset ovozida tomomlash maqsadga muvofiq. Muallif vokaliz ijrosiga piano (P), o‘rtada (rit), oxirida ikki piano (PP) dinamik belgilari qo‘yganligi ijrochidan nafasni tejab ishlatishni va kuyga sayqal berishni talab qiladi. Botir Zokirov talqinida ushbu asar mukammal ijro etilgan.

Shuningdek, Botir Zokirov estrada uslubida qayta ishlangan hind („Nechun xayolga cho‘mding?“, „Dil orzusi“, „Meychale“), eron („Maro bebus“, „Ayriliq qo‘shig‘i“), misr („Uyqum o‘g‘risi“), suriya („O‘tmishimga yig‘layman“), livan („Go‘zal qiz“), meksikan („Alvido muhabbat“), italyan („Yashasin muhabbat“) qo‘shiqlarini, chet el mualliflaridan E. Masias, J. Brel (Fransiya), Choudhuri, R. Shankar (Hindiston), Fatxulla Sulaymon (Suriya), Farid al-Atrash (Misr), aka-uka Rahboniylar (Livan), D. Ristich (Yugoslaviya) asarlarini original (har birini o‘z tilida) ijro etgan.

Botir Zokirov o‘zbek musiqa san‘atida tutgan o‘rni beqiyosdir. Masalan, estrada qo‘shiqchilik asoschisi sifatida ijro etgan asarlarini yuqorida sanab o‘tdik, shuningdek uning rassom sifatida yaratgan „Avtoportret“, „Saron“, „Gumbazlar“, „Bolalik ko‘chasi“, „Chor minor“ kabi asarlari ma‘lum. Adabiyot ustasi sifatida bir qancha hikoya, ocherk va she‘rlar muallifi. Jumladan „So‘g‘d elining qoplani“ operasi (Ik. Akbarov) ning librettosini yozgan. „Kichik shahzoda“ (A. de Sent-Ekzyuperi), „Soya“ (Ye. Shvars) asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Kinoaktyor sifatida yosh muhandis („Gullar ochilganda“), Rabindranat Tagor („Olovli yo‘llar“), Abdullo („Dahoning yoshligi“) kabi obrazlar yaratgan. „O‘zbektelefilm“ studiyasi bag‘ishlangan „Menga qo‘shiq chizib ber“ va „Aytilmay qolgan qo‘shiq“ hujjatli filmlarni, o‘g‘li Bahodir Zokirov „O‘sha, o‘tgan kunlar“ filmini suratga olgan.³

Botir Zokirov o‘zbek madaniyat sohasini rivojlanishi uchun katta hissa qo‘shgan faoliyati davomida „Yoshlik“ ansambli, O‘zbek davlat estrada orkestri yakkaxon xonandasi, Toshkeny myuzikxolning tashkilotchisi, yakkaxoni va badiiy rahbari sifatida ish olib borgan. Toshkent ko‘chalaridan biriga Botir Zokirov nomi berilgan. Shuningdek, Jizzaxdagi san‘at bilim yurti, Samarqanddagi yoshlar san‘at markazi uning nomi bilan yuritiladi. 1989-yildan uning nomida zamonaviy estrada qo‘shiqchilari tanlovi o‘tkaziladi. Botir Zokirovning musiqa san‘atidagi fidokorona xizmatlari bugungi kunda ham qadrlanmoqda. Masalan, Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2020-yil PQ-4980-son 02.12.2020 yilda O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash tog‘risidagi qarori orqali san‘atkorning ijodiy faoliyatini qayta o‘rganishga zamin yaratildi. Jumladan PQ-5261-son 16.10.2021-yildagi qarori bilan, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san‘ati tashkil etildi.

Botir Zokirov ijro etgan asarlar, bugungi kunda musiqa san‘atida o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Shuningdek Tv, Radio orqali uning xonanda ijro etgan qo‘shiqlar kun-kunora qulog‘imizga chalinib, dillarni mamnun etadi. Zero uning ijrosidagi qo‘shiqlar baxt, shodlik ohanglari bilan to‘yingandir.

² Gulgina Zokirova. „Eng gullagan yoshlik chog‘imda“. Toshkent 2011yil

³ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mutal_Burhonov



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Solovei uzbekskoy estrady in Russian. Created 2011-04-30.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Toshkent 2000, 2005 yil
3. Gulgina Zokirova. “Eng gullagan yoshlik chog‘imda”. Toshkent 2011yil